

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

Alfraganus universiteti

ijtimoiy fanlar kafedrasи dotsenti

ORCID: 0009-0002-8931-1341

Annotatsiya. Maqolada, san'atning insonga beradigan estetik ta'siri, shaxs estetik ongining shakllanishida badiiy asarlarning o'rni to'g'risida fikrmulohazalar berilgan. Estetik ong va estetik madaniyatni shakllantirishning muhimligi asoslangan.

Kalit so'zlar. San'at, madaniyat, estetik ong, badiiy ijod, san'at asari.

O'tgan asrimizda mamlakatimizda san'atning asosiy vazifasi sho'rolar mafkurasi, ma'naviyati va madaniyatini keng yoyishdan iborat bo'lган. O'sha davr estetikasining metodologiyasi faqat sotsialistik realizmga suyangan. Mazmun va shakl rang barangligi rus madaniyatiga monand bo'lishi ta'minlangan. Natijada, ba'zi milliy san'at turlari va badiiy ijod namunalari yo'qolib, toptalib tashlangan. Mustaqillik yillarida san'at va madaniyatdagi keng ko'lamli o'zgarishlar ta'sirida san'at asarlarida milliylik va zamonaviylikka amal qilina boshlandi. Rassomlar, xaykaltaroshlar, me'morlar, adabiyotshunoslar, shoirlar, umuman olganda san'at va madaniyatni rivojlantiruvchi soha xodimlari qatlami shakllana boshladi. Ular yaratgan milliy va zamonaviy san'at asarlari o'ziga xos estetik madaniyat, shaxs estetik didi, estetik idealining shakllanishi uchun o'z ta'sirini ko'rsata boshladi; birinchidan, qonunan ijod erkinligining ta'minlab berilishi, milliy va zamonaviy san'atning vazifalarini o'zgartirib, ular asosan, estetik ong va madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi, san'atning tarbiyaviylik funksiyalarini oshirishni, go'zallikni yaratish kabi vazifalari belgilandi.

Hozirgi kunda san'at ahli tomonidan yaratilgan san'at asarlari shaxs estetik ongi va jamiyat estetik madaniyatining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Makon va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

zamonga oid, faqat zamonga yoki faqat makonga oid san'at turlari shakllanishga ulgurgan. Ularning har birining yaratilishida rassomlar, xaykaltaroshlar, bastakorlar, xunarmandlar, dizaynerlar, shoir va yozuvchilar, adabiyotshunoslar, aktyorlar kabi bir qancha san'at vakillari badiiy-estetik ijodiy faoliyat olib bormoqda. Masalan, A.Oripov tomonidan yozilgan “O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi” kishida vatanga nisbatan go‘zal xis-tuyg‘ularni uyg‘otadi, vatanimizning serqo‘yoshligi, erkinligi, tabiatning go‘zalligi, mustaqilligini tarannum etadi. Shaxslararo, millatlararo mehr-muxabbatni, bag‘rikenglikni targ‘ib etib, go‘zal fazilatlarni shakllantiradi, kishida vatanparvarlik, ulug‘vorlik xis-tuyg‘ularini uyg‘otadi. Bepoyon dalalarimizning go‘zalligini, ajododlarimizning mard va jasur insonlar bo‘lganliklarini uqtiradi. Madhiyamizda tarannum etilgan badiiy g‘oyalari har bir kishida milliy g‘urur, ma’naviy go‘zallik, estetik fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek xalq shoiri E.Voxidovning “O‘zbegim” she’ri ham kishida go‘zal xis-tuyg‘ularni uyg‘otadi, “o‘zbek” so‘ziga berilgan urg‘u uning bag‘rikenglik fazilatlari, mard o‘g‘lonlari, tarixiy poydevorining baquvvatligi, go‘zal fazilatlar egasi sifatlari bilan ifodalanadi.

Mamlakatimizda shaxs estetik ongi va jamiyat estetik madaniyatini shakllantirish natijasida, go‘zal turmush tarziga erishish, barkamol kelajak avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan kompyuter texnologiyalari, internet, uyali aloqa vositalaridan ongli, rejali, madaniyatli foydalanishga erishish zarur. Milliy did, estetik qadriyatlarni yuksaltira oladigan, milliy va zamonaviy san'at asarlarini dunyoga tanita oladigan go‘zal kelajak avlod vakillarini tarbiyalash bugungi kunda juda dolzarbdir.

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, san'at va madaniyatdagi islohotlar, ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar zamonaviy san'at imkoniyatlarining yuksakligini ko‘rsatadi. Chunki, “insonning moddiy ehtiyojlarini qondirib borish uning jismoniy mavjudligini ta’minlaydi, lekin bugungi kunimizda inson ehtiyojlarining asosiy qismi ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liq. Zamonaviy shaxsning ehtiyojlari doirasi kengayib bormoqdaki, globallashuvning shiddatli va tezkor jarayonlari insonning ma’naviy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qobiliyatlarini rivojlantirishga katta ehtiyoj tug‘diradi. Mazkur ehtiyojni qondirish fuqarolik jamiyati bilan birgalikda insonning o‘zidan ham katta mas’uliyat talab etadi”¹.[1.103] “Chunki, bizning jamiyatimiz iste’molchilik jamiyatidan innovatsion ishlab chiqaruvchi jamiyatga aylanib bormoqda. Aynan yoshlarning qiziqishini qamrab oluvchi, faollik traektoriyasining ko‘lami yangi texnologiyalar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, bu qiziqish ushbu texnologiyalarni shakl va mazmun jihatdan axloqiy-estetik mazmun kasb etishiga, shakllanib kelayotgan yosh avlodning jismoniy, axloqiy-estetik rivojlanishiga xizmat qilishi kerak bo‘ladi”². [2.97]

Shu sababli, birinchidan, shaxs estetik ongi va madaniyatini shakllantirishda zamonaviy san’at asarlarida estetik ong tizimi: estetik did, baho, niyat, nazariya, qadriyatni shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan badiiy mezonlarga, estetik tashkillashtira oladigan badiiy-estetik qonuniyatlarga buysunishi talab etiladi, ikkinchidan, zamonaviy san’at asarlari zamonaviy mavzularni, postmodernizm san’atining qadriyatli asoslarini olishi, san’atda yangi bilim va tajribalarni to‘plash juda muhimligini ko‘rsatadi, uchinchidan, globallashuv va integratsiya, ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyoti sharoitida san’atning shaxs estetik ongi va jamiyat estetik madaniyatini shakllantirishdagi vazifasini amalga oshirish juda qiyin kechishini inobatga olish kerak, to‘rtinchidan, san’atning bugungi kunda shunchalik ko‘p turlari yuzaga kelganki (anamorfoz, fotorealizm, chang bosgan mashinalarga rasm chizish, 3 o‘lchamli rasmlarning reversi, san’atdagi soyalar, teskari graffit, bodi art, nur bilan chizish, imkonsiz rasmlar, illyuziyalar va bq), ularning qaysi biri estetik ong tizimi va jamiyat estetiklashuviga qay tarzda ta’sir qilishini o‘rganish imkonsiz, shu bois zamonaviy san’atning shaxs estetik ongi va madaniyatini shakllantirishdagi o‘rnini aniqlashtirishda falsafiy nuqtayi nazardan yondashish talab qilinadi, beshinchidan, san’at ta’sirida shaxs estetik ongi va madaniyatini shakllanishiga erishishning estetik ehtiyoj va estetik faoliyat bilan ham bevosita bog‘liq jihatlari ham mavjud, ya’ni zamonaviy san’at asarlari estetik ong va

¹ Саиткосимов А. Инсон ва жамият манфаатлари уйғунлигининг фалсафий таҳлили//Имом Бухорий сабоқлари. №1.2019.-103-бет.

² Аликулов К. Ёшларда иқтисодий фаолликни шакллантиришнинг ахлоқий ва эстетик жиҳатлари. Фалсафа фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Самарқанд, 2018, -97-бет.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

madaniyatni shakllantiradigan darajada yaratilgan bo‘lsada, estetik ehtiyoj mavjud bo‘lmasa, estetik faoliyat olib borilmasa, san’atning estetik maqsadi amalga oshmay qoladi. Manbalarda estetik ehtiyoj insonning tabiiy istaklari asosida kelib chiqishi ta’kidlangan bo‘lsada, ammo estetik ehtiyojni tashqaridan ta’sir ko‘rsatib shakllantirishga erishish lozim. Mutolaa madaniyatini shakllantirish uchun olib borilayotgan islohotlar bunga misol bo‘la oladi;

Agar shaxsda estetik ong rivojlanmasa, jamiyatning estetiklashuvi, madaniylashuvi past darajada bo‘ladi. Ayniqsa hozirgi kunda O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining ustuvor vazifalarini amalga oshirishda, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan beshta tashabbusni hayotga joriy etishda, O‘zbekistonning turizm imkoniyatlarini ruyobga chiqarishda oddiy fuqarolardan tortib, mansabdor shaxslarning ham estetik ongi va estetik madaniyati yuqori darajada shakllanganishi talab qilinmoqda. Masalan, hozirgi kunda hududlardagi rahbarlarning iqtisodiy faolligi, iqtisodiy bilimi va tajribaga ega bo‘lishi dolzarblashib bormoqda. Shu bilan bir qatorda estetik ongi va madaniyatining shakllanganlik darjasini ham yuqoridagi islohotlarni amalga oshirishda juda muhimdir. Namunali uy-joylar, baland binolar, korxona va tashkilotlar, ta’lim muassasalari, savdo majmualari qad rostlab borayotgan bugungi Yangilanayotgan O‘zbekistonning zamonaviy qiyofasini yaratishda estetik ong va estetik madaniy sifatlarga erishish vatanimiz chiroyiga o‘zgacha did, go‘zallik, innovatsiyalarni taqdim etadi.

Shaxs estetik ongi va jamiyat estetik madaniyatini shakllantirishda zamonaviy san’atning imkoniyatlaridan kelib chiqib, quyidagi xulosani taqdim etish mumkin:

Hozirgi kunda san’atning shaxs estetik ongi va jamiyat estetik madaniyatini shakllantirishi uchun keng imkoniyatlari mavjud, masalan, zamonaviy san’atni postmodernizm san’atisiz tasavvur etish qiyin, qisqa vaqtлarni o‘z ichiga olgan san’atdagi bu yo‘nalish, o‘tgan asrimizning innovatsion g‘oyalarini o‘z ichiga olib, xaotik mazmundagi san’at asarlarining yaratilishi, modernizmni tanqid qilib emas, balki uning qismi va shakli sifatida o‘ziga xos tarixiy davrni o‘z ichiga oldi. San’at asarlari tarixan shakllangan tamoyillari va qonuniyatlariga to‘la amal qilsa, shaxs

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

estetik ongi va madaniyatining shakllanishida bo'shliqlarni yuzaga keltirmaydi hamda san'atning asosiy maqsadini samarali tarzda bajaradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Сайтқосимов А. Инсон ва жамият манфаатлари уйғунлигининг фалсафий таҳлили. Имом Бухорий сабоқлари. – Самарқанд. №1. 2019. - Б.103.
2. Аликулов Қ. Ёшларда иқтисодий фаолликни шакллантиришнинг ахлоқий ва эстетик жиҳатлари. Фалсафа фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2018, - Б.97 б.
3. Турсункулова, Ш. Т. (2021). THE DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE ABOUT THE ART IN THE AESTHETIC PARADIGM.
4. Турсункулова, Ш. Т. (2021). Complicated features and theoretical basis of forming person's esthetic consciousness. *Theoretical & Applied Science*, (2), 5.